



Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 07.09.2022 г. № 91-2-41-OB/2022

между "Mega Trade Business Kapital" МСН и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 20300000

Глава

Казначейский лицевой счёт

110

100022860062587065200110008

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)		Всего
	4252110		
Январь			
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь			
Июль			
Август			
Сентябрь	20 300 000,00		20 300 000,00
Октябрь			
Ноябрь			
Декабрь			
Всего за год	20 300 000,00		20 300 000,00

Всего 20300000 сум

Йигирма миллион уч юз минг сўм 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 6090000 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в Сентябрь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца.
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



(подпись)

Якубов Ҳалим Махмудович

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Аъзамов Ислок Камолович

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

« ____ » 20 ____ г.

Получил работник
заказчика



« ____ » 20 ____ г.

MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

7«9»2022 yil.

91-2-41-OB/2022-son

“MEGA TRADE BUSINESS KAPITAL” mas‘uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o’rinlarda “Yetkazib beruvchi” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi **rahbar O.Ochilova**, va **Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** (keyingi o’rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi), nizom asosida harakat qiluvchi **boshlig’i H.Yakubov**, ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar to’g’risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Yetkazib beruvchisotib oluvchiga quyida ko’rsatilgan miqdor va narxda tovar yetkazib berish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa o’z navbatida tovarni qabul qilib olib haqqini to’lash majburiyatini oladi:

№	Tovar (Mahsulot) nomi	O’lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi QQS bilan
1	Стойки железобетонные для ЛЭП	dona	10	980000	9800000
2	Уголок стальной из нелегированных сталей неравнополочный	metr	80	25000	2000000
3	Провод алюминиевый общего назначения.	metr	1540	5000	7700000
4	Изолятор керамический.	dona	40	20000	800000
	Jami				20300000

1.2 Mazkur shartnomaga asosan yuqoridagi jadvalda ko’rsatilgan tovar (mahsulot)ni yetkazib berish muddati: 2022-yil 30-sentyabrgacha.

II. TOVARNING SIFATI

2.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati va amal qilish muddati shartnomani tuzish paytida ushbu turdag'i mahsulot uchun qo'yiladigan standartlar va texnik shartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Tovarlarning yaroqlilik muddati umumiylashtirish muddatining 80 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

2.2. Agar tovarning sifati ushbu shartnomaga talablariga javob bermasa, Buyurtmachi Yetkazib beruvchiga hisob fakturani imzolagan kundan boshlab 30 kun ichida da'vo ariza berish huquqiga ega. Buyurtmachi tovarlarni saqlash shartlariga rioya qilishi shart. Tovarlarni noto'g'ri saqlash yoki Buyurtmachining harakati/harakatsizligi tufayli yuz bersa, buning uchun Yetkazib beruvchi javobgar bo'lmaydi.

2.3. Tovarlarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish Buyurtmachining omborida amalga oshiriladi va tomonlar imzolagan xisob-varag'i bilan tasdiqlanadi. Tovarlarni yetkazib berish sanasi tomonlar hisob-varaqni imzolagan sana hisoblanadi.

2.4. Tovarlarni qabul qilishda, Buyurtmachi tovarlarni shartnomasi hisob-varag'i shartlariga muvofiqligini va assortimentini, miqdorini, to'liqligini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida yetkazib berilgan tovarlarning ko'rsatilgan hujjatlarga mos emasligi aniqlansa, Yetkazib beruvchi tomonlarning kelishuviga asosan o'z mablag'lari evaziga Buyurtmachining omboriga tovarlarni almashtirish/ yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.5. Tovar Yetkazib beruvchining omboriga qabul qilingandan so'ng, tovarlarning miqdori nomuvofiqligi bo'yicha e'tirozlar qabul qilinmaydi. Buyurtmachi 30 kun ichida Yetkazib beruvchiga qabul qilish dalolatnomasidagi tovarlarni sifati bo'yicha asosli yozma talablarini, shuningdek mustaqil ekspertiza tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli.

2.6. Yetkazib berilayotgan tovarlar davlat standartlariga talablariga javob beradigan tayyor, konteynerlarga qadoqlangan bo'lishi kerak, bu tovarlarni tashish va saqlash paytida buzilish yoki shikastlanishdan saqlaydi.

2.7. Mazkur shartnomaning 2.5 bandida ko'rsatilgan tartibda nuqsonli tovarlar yetkazib berilganligi tasdiqlansa, Yetkazib beruvchi 30 kun ichida nuqsonli tovarlarni sifatli tovarlar bilan almashtirishi shart.

2.8. Yetkazib beruvchining talabiga binoan Buyurtmachi rad etilgan tovarlarni qaytarishi kerak.

III. ShARTNOMA TARAFALARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Yetkazib beruvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovari o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnomaga talablariga to'liq rioya etishni;
- Buyurtmachi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Buyurtmachi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-Yetkazib beruvchidan tovari qabul qilib olmagan yoki tovari rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-Yetkazib beruvchi Buyurtmachidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. Yetkazib beruvchining majburiyatları:

- tovari Buyurtmachiga mulk qilib topshirish;

- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan davlat standartlariga muvofiq sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni Buyurtmachiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni Buyurtmachiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. Buyurtmachining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan davlat standartlariga muvofiq sifatdagi tovarni topshirishni talab qilish;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

3.4. Buyurtmachining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioxya etish;
- Yetkazib beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Buyurtmachi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida Yetkazib beruvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

IV. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

- 4.1 Tovarlar tomonlar kelishuviga ko'ra Buyurtmachining omboriga yetkazib beriladi.
- 4.2 Yetkazib beruvch tovarlarni maxsus himoyalangan idishlarda yetkazib beradi
- 4.3 Tovarni topshirish, qabul qilish joyi Buyurtmachining ombori hisoblanadi.
- 4.4 Tovarni topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 5 ish kunini tashkil qiladi.

4.5 Buyurtmachiga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjalarni taqdim etgan holda hisob-varaqni rasmiylashtirish sanasi Buyurtmachi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

4.6 Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqeа sodir bo'lган kundan boshlab hisoblanadi.

V. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnomaning umumiyligi summasi 20 300 000 (Yigirma million uch yuz ming) so'mni tashkil etadi.

5.2. Yetkazib berilgan **tovar uchun haq to'lash** Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab **shartnoma umumiyligi qiymatining 30 foizi miqdorida oldindan to'lov 15 bank ish kunida** amalga oshiriladi. **Qolgan 70 foizi tovar yetkazib berilgan kundan boshlab 30 bank ish kuni ichida** hisob-varaqga asosan to'lab beriladi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston

Respublikasi «Xo’jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to’g’risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

6.2. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to’liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko’rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to’laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to’lash shartnomada majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to’liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko’rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

6.3. To’lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to’lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to’lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Buyurtmachi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o’zi to’lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to’laydi. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o’z vaqtida to’lamaganlik uchun Buyurtmachi yetkazib beruvchiga o’tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to’lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to’lov summasining 50 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorida penya to’laydi.

6.4 Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo’yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo’jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, Buyurtmachi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to’lashni rad etib, Yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo’lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to’lab qo’ylgan bo’lsa, to’langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo’lmagan tovarlar yetkazib bergenlik uchun jarima Yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

6.5 But bo’lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda Buyurtmachi tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi Buyurtmachining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o’zga muddat belgilangan bo’lmasa, o’n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart, bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to’lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to’lab qo’ylgan bo’lsa, belgilangan tartibda to’langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli, yetishmayotgan qismlar qiymatini qo’shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo’lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli. Tovarlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, Buyurtmachi (buyurtmachi) but bo’lmagan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo’lmagan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

6.6 Marka belgisi qo’yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o’ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o’ralmagan tovarlarni yetkazib bergenlik uchun yetkazib beruvchi Buyurtmachiga(buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to’laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo’natilishi yoki saqlanishi kerak bo’lgan hollarda Buyurtmachi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o’z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o’rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir

shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o‘rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

6.7 Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun Buyurtmachi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo‘yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to‘laydi. Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to‘lanishini talab qilishga haqlidir.

6.8. Tomonlar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar o‘zaro muzokara olib borish yo‘li bilan hal qilinadi, agar tomonlar kelisha olmasalar yuzaga kelgan nizolar qonunchilikka muvofiq iqtosodiy sud tartibida hal etiladi.

VII.KORRUPSIYAGA QARSHI QO‘SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

7.2. Taraflar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va‘da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to‘lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya’ni taraflardan biri o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rinishiga kafolat beradi.

7.3. Agar shartnoma bo‘yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlari, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqburzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

7.4. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomanini bir taraflama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

VIII.FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1 Tomonlarga bog‘liq bo‘lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo‘lmagan holatlar shu jumladan e’lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiylar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong’inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

8.2. Taraflar o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

IX.QO‘SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

9.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligesiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxsga berishga haqli emas.

9.3. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldag'i 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va **2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi**.

9.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish amaldagi qonunchilikka muvofiq yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

9.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

9.6. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

9.7. Taraflarning manzili yoki hisob raqamlari o'zgargan hollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi

X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"Yetkazib beruvchi"

**"MEGA TRADE BUSINESS KAPITAL"
MCHJ**

(Tovar yetkazib beruvchining yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Buxoro viloyati Jondor tumani,

Tel/faks +998941213373

h/v 20208000805539754001

Bank nomi: Xalq bank Jondor filiali

MFO 00671

OKONX 46900

STIR 309654833

Rahbar



O.Ochilova

"Buyrutmachi"

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

(budjetdan mablag' oluvchi tashkilotni nomi)

Manzil: Shofirkon tuman Mirzoqul MFY

Tel/faks 50-2-33-39

sh/h* 100022860062587065200110008

budjetdan mablag' oluvchi STIR: 201114223

OKONX:90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tuman
bo'yicha G'aznachilik

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent sh. Markaziy bank

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIR 201122919

Rahbar _____ H.Yakubov



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR
Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	XALIM YAKUBOV MAXMUDOVICH
Imzolangan sana	7 сен 2022 11:50
Hujjat kodi	MI1050746562
Hulosa kodi	PF1686258862

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi. Mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va “MEGA TRADE BUSINESS KAPITAL” mas‘uliyati cheklangan jamiyati o‘rtasidagi 20 300 000 (Yigirma million uch yuz ming) so‘mlik mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan loyiha markazga 2022-yil 5-sentyabr sanasida ishlab chiqilgan, 2022-yil 5-sentyabr yuridik xulosa uchun yuborilgan, 2022-yil 5-sentyabr sanasida loyiha markazning mas’ul xodimiga biriktirilgan.

Loyiha Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Safarov